

DIDACTIC APPROACH TO DESIGNING LESSON PROCESSES

Eshmanov Gafur Jorayevich

Senior Lecturer, Department of "Methods of Teaching Languages", Tashkent Regional Center for Retraining and Advanced Training of Public Education, Candidate of Philological Sciences

Annotation: The article is devoted to the issue of improving the educational efficiency of school-children. The importance of forming a universal learning movement in students to increase the effectiveness of learning is emphasized.

Keywords: Pupils, teachers, universal learning processes, project, technology, innovative ideas. Ona vatanimiz ravnaqi yo'lida yosh avlodni har taraflama komil shaxs etib tayyorlash dolzarb vazifa hisoblanadi. "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son, "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son, Farmonlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumat tomonidan belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash borasida istiqbolli o'zgarishlar yuz bermoqda. Kelajak esa yoshlarniki. Bugungi kunda ularni yanada rivoj topib borayotgan kuchli fuqarolik jamiyatiga munosib holga tarbiyalash va bu borada dars berayotgan pedagog kadrlar salohiyatini doimiy ravishda oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Jumladan, ona tili va adabiyoti fani o'qituvchilari oldiga ham kattadan katta imkoniyatlar, ya'ni loyihalashtirish texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- Fan bo'yicha yangi ilmiy, o'quv tadqiqot ishlari, ilg'or tajriba va innovatsion g'oyalardan fan mazmunini oshirishda foydalanish;
- O'quvchi yoshi, psixofiziologiyasi va bilimiga muvofiq loyihalar, ularni amalga oshirish;
- Loyiha turlari, ularning tavsifi va afzalliklarini rejalashtirish;
- Baholash loyiha ishining muhim qismi. O'quvchida mustaqil fikrlash ko'nikmasi shakllantirish;
- Loyihali mashg'ulotni muvaffaqiyatli boshqarish;
- O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, ongli ravishda kasb tanlashlariga ko'maklashish kabi muhim imkoniyatlarni yuzaga chiqarish lozim bo'ladi.

Davlat ta'lim standarti tomonidan tavsiya qilingan zamonaviy ta'limning eng muhim vazifalaridan biri – bu maktab o'quvchilarini o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatini beradigan universal ta'lim faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishdir.

Ayni kunda fan o'qituvchilarning o'z mutaxassisliklari darajasida bilim berishi yetarli imkoniyatlarni yuzaga chiqarmayapti. Ayniqsa, ona tili va adabiyoti fani darajasida tavsiya etilayotgan davlat buyurtmasi yangidan yangi ma'lumotlarni o'quvchilarga yetkazishni taqozo qilmoqda. Olib borilayotgan dars jarayonlarida ayrim qo'layliklar ham hisobga olingan. Bunga fan ustozlarining mavzu doirasidan 15% chetga chiqish imkoniyati borligini, sungi yangiliklarni kiritish imkoniyati borligini misol tariqasida aytishimiz mumkin.

Uzluksiz ta'limda adabiyot kursining mazmuni va ish tartibi, har bir mavzuniig mohiyati muayyanlashtirildi. Unda o'zlashtirilishi lozim bo'lish ilmiy-nazariy, adabiy tushunchalar, asarni o'rganish, nutq o'stirish, sinfdan tashqari o'qitish, asarlar yuzasidan suhbat uchun ajratiladigan soatlar miqdori, adabiyotdan o'tkazilishi ko'zda tutilgan og'zaki va yozma ish turlari, predmetlararo aloqa, sinfdan tashqari o'qishdagi asarlar ro'yxati beriladi.

Davlat dasturini bajarish asosida o'qituvchi o'quvchilardagi adabiyotga bo'lgan muhabbat, ijodkorlik, ijodiy faollik, yuksak axloqiy an'analarni takomillashtiradi. Shuningdek, fanga oid yangi

texnologiyalar, ma'lumotlarning ko'payib va o'sib borishi har bir mutaxassisdandan ushbu ma'lumot dunyosida harakat qilish imkoniyatini talab qiladi - ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, tanqidiy baholash, saqlash va undan foydalanish lozim bo'ladi. Texnologik taraqqiyotni tezlashtiradigan vaqt tez o'zgaruvchan jamiyatda yashash zarurligiga olib keladi. Shu sababli, maktab o'quvchilarini dars jarayonida turli xil o'zgarishlarga tayyorlash, ulardagi harakatchanlik va faollikni, konstruktiv fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi lozim.

Zamonaviy jamiyat moslashuvchan, harakatchan, mustaqil faoliyatga tayyor, hayoti davomida o'qigan bilimlarni fuqarolik jamiyatida foydalana oladigan maktab bitiruvchisini talab etadi. Shu sababli ta'lim sohasidagi davlat siyosati maktab bitiruvchilariga yangi talablarni qo'yadi. Jamiyatga o'z harakatlarini boshqarishga qodir, tanlangan vaziyatda mustaqil ravishda mas'uliyatli qarorlarni qabul qilishga tayyor bo'lgan o'qimishli yoshlar lozim bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, dars jarayonini loyihalashda didaktik yondashuv ta'limning zamonaviy vazifalari o'quvchilarda o'zlarining keyingi hayotlarida doimiy ravishda o'z-o'zini tarbiyalashga, o'zgarishlarga moslashuvchan munosabatda bo'lishga, yangi faoliyat turlarini o'zlashtirishga ijobiy imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi. 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni va 2020-yil 6-noyabrdagi PQ - 4884 sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini joriy etish to'g'risida"gi 2020-yil 12-oktabrdagi PQ - 646-son Qarori.
3. "Zamonaviy o'qitish masalalari". // 2017 yil 10 may kuni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetida mavzusida respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari to'plami.